

## Og'ir hollar

Bundan uch oy burun bizlar Rusiya boshidan o'tmoqda bo'lg'on umumiy hollarni ta'qib etmakda va Ovrupo urushining holatini ko'rilmakda edik. Ammo o'z Turkistonimiz va o'z holimiz oxiri na bo'lurini ko'b o'ylamas edik. Go'yo bizlar mundan burun Rusiya inqilobi va Ovrupo urushining kunlik voqeoti bilan ovora bo'lib, qolg'on va o'z boshimizg'a kelib turg'an og'ir kunlar va qo'rqunchli daqiqalarni hech o'ylamagan edik.

Lekin bu buzuq zamon, to'g'risi, buzuq Rusiya, bu so'ng'i uch oy ichinda bizning Turkistonimizni ham og'ir holg'a tushurdi. Musulmonlarning tinchligini buzdi. Bir yoqdan ozuqa masalasi va ochliq balosi, ikkinchi tomondan siyosiy hollar, ya'ni Turkiston Muxtoriyatining tahlikada qolg'onlig'i. Boshqa bir yoqdan, kunda bo'lub turg'on o'g'urluq, toroj va talonlar, xalqni tinjsizlantirmoqda va falokatga solmoqdadir.

Go'yo uch oydan beri Turkistong'a na Orenburg' tarafdin va na boshqa yoqdan bir dona bug'doy kelgan emaski bu jihatdan Turkiston musulmonlarini ochliq balosi isyon etmakdadir. Agar bu ozuqasizliq shul holda yana bir niche oy davom etsa, voy bizning holimizg'a!...

Bu so'nggi kunlarda bizning Samarqandimizda ham qiyin bir vaziyatda qoldi: bir niche kun ilgari Buxoro tarafidan kelayotgan ming nafarcha qozoq kilib, Samarqanddan o'tib ketmoqchi bo'lg'onda, ular bilan bolshivuklar orasida bo'lg'ay nizo voqe bo'ldi; janjallari qilichg'a oid bo'lar chog'da edikim, qozoqlarning bir qismi tarki siloh<sup>1</sup> etarga majbur bo'ldilar.

Mana shul janjallar chog'ida Samarqand shahri qo'rqunchli daqiqalar o'zgarib oldi: Shahardagi "Tepaqo'rg'on" tevaraginda to'plar qo'yulib, mashq uchun bir niche bor, niche martalab to'p otilganda, xalq muning tovushini eshtg'och birdan qo'rqushib, bog' va sahro tarafg'a qocha boshladi.

Mazkur yo'ldan o'tar qozoqlar Samarqand istansasig'a turg'onda, ulardan yuz nafarchasi shaharg'a kirib, Rusiya qit'asidagi ba'zi ruslar bilan namoyish qildilar. So'ngra bu namoyishchilar eski shaharg'a keldilarki, bularni xalq ko'rgach "shaharni qozoqlar olibdir" deb gumon qildilar. Hatto ba'zi musulmonlar bilmasdan qozoqlarg'a non va tuz taqdim etdilar... holbuki qozoqlar: "bizlar yo'l unar musofirdimiz 2-3 kundan so'ng ketamiz" deb aytib turgan edilar. Lekin bizning xalq shoshqinliq bilan xato etdilar, o'zlarini tuta bilmadilar; tadbir va durandishlik<sup>2</sup> etmadilar.

---

<sup>1</sup> Siloh – qurol.

<sup>2</sup> Durandishlik – oldindan ko'ra bilish, ehtiyotini ko'rish.

Qozoqlar Samarqanddan o‘tib ketishganidan keyin bolshivuklar qozoqlar bilan munosabatda bo‘lg‘on rus, yahudiy va musulmonlardan bir niche kishilarni qo‘lg‘a ola boshladilarki, bu jihatdan yana mushkul holda qoldiq.

10-15 kundan beri Toshkand va Farg‘ona tarafidan po‘chta kelmay turibdir. Shul sababli yana xalq og‘zida shubhalar paydo bo‘la boshladi... Xullas, bir tarafdan emas, yuz tarafdan xalqning havasi parishondir. To‘g‘ri, oxirig‘i xayrli etgay!

**Hoji Muin**

**“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 22 fevral.**